

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1/FVJZ2343>
UDC: 343.1(045)(575.1)

YARASHUV VA O'Z QILMISHIGA AMALDA PUSHAYMON BO'LGANLIGI MUNOSABATI BILAN ISH YURITISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHNING AYRIM MASALALARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxslarning yarashuv va o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etish hamda uning protsessual tartibi bo'lgan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada jinoyat va jinoyat-protsessual huquqlarda nazarda tutilgan mazkur javobgarlikdan ozod qilishning moddiy va protsessual asoslari qonunchilik hamda amaliyot nuqtayi nazaridan tahlil etilgan bo'lib, mavjud muammoli va kollizion holatlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy mulohaza va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, yarashuv asosida ish yuritishni rad etish hamda tugatish bilan bog'liq moddiy va protsessual normalarda uchrayotgan muammoli holatlarga urg'u berilgan bo'lib, unda yarashuvga oid jinoyatlar ro'yxatida harbiy jinoyatlar chetda qolganligi va ularning huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, shaxslarning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi, jinoyat ishini tugatish, rad etish, yarashuv, harbiy xizmatchi, harbiy mulk.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОТКАЗА ИЛИ ПРЕКРАЩЕНИЯ ДЕЛА В СВЯЗИ С ПРИМИРЕНИЕМ И ФАКТИЧЕСКИМ РАСКАЯНИЕМ В СОДЕЯННОМ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

докторант факультета послевузовского образования

Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан, капитан

Аннотация. В данной статье исследуются процессуальные проблемы, связанные с примирением и освобождением лиц от ответственности в связи с фактическим раскаянием в своих действиях, а также отказом или прекращением производства по делу, являющимся его процессуальным порядком, и аспекты правового регулирования указанных вопросов. В статье проанализированы с точки зрения законодательства и практики материальные и процессуальные основы освобождения от настоящей ответственности, предусмотренные уголовным и уголовно-процессуальным правом, разработаны научные соображения

и рекомендации по преодолению существующих проблемных и коллизионных ситуаций. Акцент делается также на проблемных ситуациях, встречающихся в материальных и процессуальных нормах, связанных с отказом и прекращением производства по примирительному делу, в которых исследуется исключение военных преступлений из перечня примирительных преступлений и их правовые аспекты. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: уголовное дело, фактическое раскаяние лиц в содеянном, прекращение уголовного дела, отказ, примирение, военнослужащий, военное имущество.

SOME ISSUES OF REFUSAL OR TERMINATION OF THE CASE IN CONNECTION WITH RECONCILIATION AND ACTUAL REPENTANCE FOR WHAT THEY DID

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral student, Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article examines the procedural problems associated with reconciliation and the release of persons from responsibility in connection with actual repentance for their actions, as well as the refusal or termination of proceedings in a case that is its procedural order, and aspects of the legal regulation of these issues. The article analyzes, from the point of view of legislation and practice, the material and procedural bases of exemption from this responsibility provided for by criminal and criminal procedural law, scientific considerations and recommendations for overcoming existing problematic and conflict situations are developed. Emphasis is also paid to problematic situations encountered in the substantive and procedural norms related to the refusal and termination of proceedings in a conciliation case, which examines the exclusion of war crimes from the list of conciliation crimes and their legal aspects. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. In the course of the study, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedural Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

Keywords: criminal case, actual repentance of a person for what he did, termination of a criminal case, refusal, reconciliation, soldier, military property.

Kirish

Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini yanada insonparvarlashtirish masalalarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatida huquqlarini ta'minlash maqsadida qo'shimcha kafolatlar belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonpar-

varlashtirishga qaratilgan yangi institutlar joriy etish hamda amaldagilarini kengroq qo'llashga erishish, ayrim jinoyat normalarini dekriminallashtirish, jinoyat sodir etilishi-ning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Material va metodlar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66-moddasi ikkinchi qismida, Jinoyat

kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozimligi moddiy norma sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, uning protsessual tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 8-bandida nazarda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining JK 66¹-moddasi va JPK 84-moddasi to'rtinchi qismida yarashuvga asosan javobgarlikdan ozod etish shartlari va asoslari keltirib o'tilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur asoslarga ko'ra, jinoyat ishlarini tugatish insonparvarlik prinsipining amaldagi yorqin ifodasi sanaladi.

Shu sababli mazkur asosni amaliyotda, xususan, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov hamda sud jarayonlarida yanada kengroq qo'llash borasidagi muammolarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot ishida mazkur asosni qo'llash bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli ish yuritishni rad etish va tugatish JPKning 84-moddasi 1-qismi 8-bandida ko'ra hal etilishi belgilab qo'yilgan. Bunday jinoyatlar turkumiga JKning maxsus qismi 122-, 123-, 155-, 155²-, 157-, 160-, 177-, 178-, 180-, 181-, 181¹-, 184-, 185²-, 188-, 189-, 190-, 192⁹-, 197¹-, 211-, 212-, 213-, 223-, 244²-, 244⁴- va 248-moddalarida shaxsni jinoyat javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi maxsus normalar kiradi.

JKning maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlar tergovga qadar tekshiruv vaqti-

da aniqlanganda yoki jinoyat ishlarini yuritish jarayonida jinoyat ishining bir qismini tugatish orqali hal etish jarayonida mazkur band orqali ish yuritishni rad etish yoki tugatish mansabdorlar uchun qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chunonchi, respondentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, mazkur turdagi tergovga qadar tekshiruv natijasiga asosan, pora berish jinoyatini sodir etgan shaxsning holat aniqlangandan 30 sutka mobaynida arizasi ish hujjatlariga qo'shili-shi yoki ro'yxatga olingan holda taqdim etilganda, ushbu shaxsga nisbatan ish hujjatlari JPKning 83-moddasi 2-bandi orqali hal etilishi lozimligi ko'pchilik tomonidan bildirilgan¹.

Biz ham yuqoridagi ko'pchilik respondentlarning fikriga qisman qo'shilamiz. Shu bilan birga, e'tirof etishimiz lozimki, JPK 84-moddasi birinchi qismining 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq kiritilgan bo'lib, mazkur qonunni qabul qilishdan maqsad sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni tez fosh etish, jinoyat oqibatida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash va mazkur turdagi jinoyatlarni aniqlash borasida fuqarolarning faol pozitsiyasini saqlash orqali ularning javobgarlikdan ozod bo'lishiga imkon yaratib berishdir. Biroq, masalan, poraxo'rlik jinoyatlarini aniqlash borasida ariza bilan murojaat qilgan shaxslar yoki o'z xohishi bilan noqonuniy qurol va o'q-dori mavjudligi to'g'risida xabar bergan shaxsni tergovga qadar tekshiruv yoxud dastlabki tergovda JPKning mazkur bandiga asosan hal etilishi, albatta, kelgusida bunday holatlarda panja ortidan qarashiga, oxir-oqibat jamiyatning jinoyatchilikka murosasiz munosabati so'nishiga olib kelishi mumkin. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tergovchi va mansabdor shaxslari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan nizomga ko'ra, JPKning 84-moddasi 1-qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan ish qo'zg'atish rad qilinda yoki tugatilganda, jinoyat ishi raqami berilgan holda mazkur shaxsga nisbatan barcha turdagi statistik kartochkalar to'ldiriladi va shaxsga nisbatan axborot markazida sudlangan shaxs bilan tenglashtirilgan ma'lumot qayd etilishi bunday shaxslar manfaatiga putur yetkazadi.

Ikkinchidan, yuqoridagi kabi hisoblarining sudlangan shaxs kabi axborot markazida ma'lumot qolishi natijasida fuqarolarning davlat xizmatlari yagona portali orqali olayotgan ma'lumotlar bazasida aynan qayd etilishi mazkur shaxslarning ishga joylashish va boshqa shu kabi munosabatlardagi manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, mazkur "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomda JPKning 84-moddasi 1-qismi 8-bandi bilan bog'liq holatlarni qayd etishda har qanday statistik kartochkalarni to'ldirish majburiyatini olib tashlash maqsadga muvofiq. Mazkur o'zgartirishning amaliyotga joriy etilishi, ya'ni bunday shaxslarning Ichki ishlar vazirligi Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazida sudlangan shaxslar qatorida qayd etilishining oldini olish – jinoyatlarni aniqlashda ko'mak berayotgan shaxslar faolligini oshirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarni davlatning jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatiga ishonchi ortishiga olib keladi.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida ish yurituvini rad etish yoki tugatishni jinoiy-huquqiy va jinoyat-protsessual asoslar-

ga bo'lishni ilgari surgan olimlarning fikri e'tiborga molikdir. Xususan, D.M. Mirazov, E.I. Bordilovskiy va O.A. Galustyan ish yuritishni rad etish yoki tugatish asoslarining jinoiy-huquqiy va jinoyat-protsessual asoslarga bo'linishi mantiqan to'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, birinchi guruhni jinoiy-huquqiy qonunchilikda aks etgan asoslar tashkil etishi lozim. Ushbu normalar, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxs qilmishining jinoiyligi va jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno etishini ko'rsatib turadi. Protsessual asoslarga esa jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi barcha holatlar mavjudligi va tegishli jazoni qo'llash mumkin bo'lishiga qaramay, jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq, jinoyat ishin- ing qo'zg'atilishi hamda belgilangan tartibda yuritilishini istisno etadigan va tugatilishini talab qiladigan maxsus asoslarni kiritadilar [1, 30-33-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo'shilgan holda mazkur turdagi javobgarlikdan ozod qilish borasida harbiy jinoyatlarning chetda qolayotgani tushunarsizdir. Masalan, JKning 29-296-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning rag'batlantiruvchi yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi qismi mavjud emasligi, fikrimizcha, nomaqbuldir. Chunki harbiy mulk va moddiy qimmatliklar davlatning nafaqat moddiy zaxirasi, balki u mamlakatning mudofaa qobiliyati sifatida baholanadi va uning o'rnini qisqa fursatlarda to'ldirish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 5.4-bandida "Behuda sarflash kiyim-kechak va anjomlar sotish, garovga qo'yish yoki boshqa shaxsga foydalanish uchun berishda ifodalanadi. Behuda sarflashning muqarrar belgisi – shaxsiy foydalanish uchun berilgan kiyim-kechak yoki anjomlarning harbiy xizmatchi egaligidan chiqib, o'zga shaxsning noqonuniy

egaligiga o'tishidir. Behuda sarflangan harbiy mulk doimo davlat mulki bo'lib qolganligi uchun har qanday vaziyatda u noqonuniy egalikdan tortib olinadi va agar uni qaytarishning iloji bo'lmasa, uning qiymati bir necha karra miqdorida aybdordan undiriladi" deya belgilab qo'yilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni 25-moddasi 4-qismiga asosan ijro etilishi majburiy xarakterli hujjatlar sirasiga kiradi.

Shu bois harbiy xizmatchilarni shaxslarning qilmishiga amalda pushaymon bo'lishi tartibida javobgarlikdan ozod etuvchi normalar ro'yxatini harbiy mulkni talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni qo'shgan holda kengaytirish lozim. Shu yo'l bilan harbiy mulk o'rnini qisqa muddatlarda qoplash hamda to'ldirish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda jinoiy-huquqiy sohada amalga oshirilgan islohotlarning insonparvarlikka asoslanganligining yana bir asosi – yarashuv institutining joriy etilishidir. Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo'yicha jinoyat ishini tugatishda bir qancha qulayliklar bo'lishi bilan bir qatorda, bu borada jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish va ularga yetkazilgan zararni qoplashda ushbu institut muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur asosning naqadar zarurligi va amaliyotda keng doirada qo'llanayotganligi quyidagi statistik raqamlarda ham aks etmoqda.

JPKga ko'ra, yarashuv to'g'risidagi ishlarini tugatish jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning vakolatida ekanligi sababli mazkur raqamlarda Oliy sud tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga asoslanish maqsadga muvofiq. Xususan, 2017-yilda respublika bo'yicha 13 562 ta jinoyat ishi doirasida 14 292 nafar shaxs yarashuv asosida javobgarlikdan ozod etilgan bo'lsa, 2018-yilda 8 949 ta jinoyat ishi doirasida jami 9 486 nafar shaxs, 2020-yilda 7 791

ta jinoyat ishi bo'yicha 8 266 nafar shaxs, 2021-yilda esa jami 12 788 ta jinoyat ishi doirasida 13 624 nafar shaxs yarashuvga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan. Mazkur tugatilgan ishlar doirasida 2021-yilda jami 6 463 nafar yoshlar, 1 369 nafar ayol, 390 nafar voyaga yetmaganlar, 431 nafar 60 yoshdan oshgan shaxs javobgarlikdan ozod etilgan [2].

Shu bilan birga, mazkur institutni qo'llash borasida mavjud muammoli holatlarni bartaraf etish va qonunchilikni takomillashtirish jinoiy-huquqiy sohadagi asosiy vazifalardan sanaladi. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlarda aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashda yarashuv instituti muhim o'ringa egaligi aks etgan [3, 58–68-b.].

Yuqoridagilarga ko'ra, yarashuv institutini qo'llashda nazariya va amaliyot duch kelayotgan bir necha muammolarni tahlil etamiz.

Birinchidan, yarashuvga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ro'yxati (JKning 66¹-moddasi)da harbiy jinoyatlardan birgina 298-moddaning mavjudligi boshqa harbiy jinoyatlar mazkur ro'yxatda aks etmaganidir.

D.Y. Payziyev [4, 66–71-b.] va O.A. Vladimirovalarning [5, 99–108-b.] fikriga ko'ra, mazkur institut, eng avvalo, jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilganligi nuqtayi nazaridan uning ayblanuvchi bilan yarashganligi davlatning jinoiy-huquqiy ta'qibi tugatilishi lozimligini anglatadi. Shu boisdan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxslar o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplab, u bilan yarashsa, har qanday holatda jinoyat ishlari tugatish lozim va buni biror ro'yxat bilan cheklash noo'rin yoki mazkur ro'yxatni bosqichma-bosqich kengaytirib borish zarur.

Olimlarning yuqoridagi fikrlariga qisman qo'shilish mumkin, chunki, mazkur institutning mohiyati, eng avvalo, jinoyat huquqida jabrlanuvchi manfaatlarini ifoda etsa, keyingi o'rinda jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan yoxud ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod etadi. Shunday bo'lsa-da, mazkur institut doirasiga tushishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni ro'yxat asosida belgilash va jamiyat fikrini o'rgangan holda, mazkur ro'yxatni bosqichma-bosqich kengaytirib borish maqsadga muvofiq. Eng avvalo, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi bir qancha jinoyatlarni mazkur ro'yxatga kiritish lozim.

Bu borada M.I. Alimov o'zining tadqiqot ishlarida harbiy jinoyat turlaridan ba'zilarini mazkur ro'yxatga kiritish va ushbu jinoyat ishlari bo'yicha yarashuv institutini qo'llash hamda harbiy ayblanuvchilarni jinoiy javobgarlikdan ozod etish imkoniyati berilishi lozimligini ta'kidlaydi [6, 11-b.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuratura idoralari tergovchi va huquqshunoslari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 53 foizi 279-moddaning birinchi qismi (Bo'ysunmaslik), 280-moddaning birinchi qismi (Buyruqni bajarmaslik); 61 foizi 283-moddaning birinchi qismi (Badanga shikast yetkazish), 295-moddaning birinchi qismi (Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish); 71 foizi 284-modda (Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi)da nazarda tutilgan jinoyatlarning ham yarashuv instituti doirasiga kiritilishi maqsadga muvofiqligini bildirishgan².

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunida bu masala o'ziga xos ko'rinishda belgilangan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qo-

nunining 76-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplab, u bilan yarashsa, javobgarlikdan ozod etiladi [8].

Qozog'iston Respublikasi JKning 68-moddasiga ko'ra, shaxs muqaddam jinoyat sodir etganlik holatidan qat'i nazar, jinoyat turlaridan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etsa, basharti bu jinoyat jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lmagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan. Bundan tashqari, ayrim belgilangan shaxslar (voyaga yetmagan shaxslar, homilador ayollar va boshq.) og'ir turdagi jinoyatni sodir etgani uchun ham basharti bu jinoyatlar jabrlanuvchining o'limi yoki og'ir oqibatlariga olib kelmagan bo'lsa, yarashuv asosida javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan [9].

Ukraina JKning 46-moddasiga ko'ra, korupsiyaga oid jinoyatlardan tashqari, toifasidan qat'i nazar, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs yoki ehtiyotsizlik ortidan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxs, basharti mazkur jinoyat mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etilmagan bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashgan va yetkazilgan moddiy zarar o'rni qoplangan taqdirda, javobgarlikdan ozod etilishi mumkin [12].

Yuqoridagilarga asosan, xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligiga ko'ra, harbiy jinoyatlar ham yarashuvning umumiy shartlariga muvofiq bo'lsa, mazkur institut doirasida javobgarlikdan ozod etiluvchi jinoyatlar sirasiga kirishi ma'lum bo'ldi. Shu sababli JKning 66¹-moddasini quyidagi jinoyat turlari bilan to'ldirishni taklif etamiz:

– 279-moddaning birinchi qismi (Bo'ysunmaslik);

² O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tergovchi va mansabdor shaxslari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari.

- 280-moddaning birinchi qismi (Buyruqni bajarmaslik);
- 283-moddaning birinchi qismi (Badanga shikast yetkazish);
- 284-modda (Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi);
- 295-moddaning birinchi qismi (Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish).

Ikkinchidan, JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan ba'zi jinoyatlarda jabrlanuvchi taraf davlat organlari yoki yuridik shaxs hisoblanadi, biroq bu jinoyatlarda yarashuv institutini qo'llash tartibi amaldagi jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinmagan. Mazkur turdagi jinoyatlarning aksariyati noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq va bu tadqiqot mavzusi doirasiga kirmasligi mumkin, ya'ni harbiy xizmatchilarga xizmatdan tashqari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan. Shunday bo'lsa-da, ro'yxatda mavjud ba'zi jinoyatlar harbiy xizmatchilar tomonidan ham sodir etilishi mumkinligini inobatga olgan holda uni tadqiq etish maqsadga muvofiq.

B. Murodovning fikriga ko'ra, yarashuv instituti doirasiga kiruvchi ba'zi jinoyatlarda jabrlanuvchi tarafda davlat turganligi va buni protsessual qonunchilik tartibga solmayotganligi yarashuv institutining samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda [12, 68-b.].

V. Pavlenok harbiy sudlar bu borada mulkiy jabr ko'rgan yuridik shaxsning nizomini o'rgangan holda, uning vakili yoki jabrlanuvchi huquq bergan qonuniy vakilga mazkur huquq taalluqli ekanligi va bunga qonun cheklov qo'ymaganligini bildiradi [13, 177-179-b.].

B. Murodov va V. Pavlenokning fikrlari juda o'rinli. Shuningdek, M. Nagulyak [14, 7-b.], S. Xasanova [15, 74-78-b.] va M. Parfenovlar [16, 60-66-b.]ning mazkur masala dolzarb ekanligi va uni tartibga solish lozimligi haqidagi fikrlariga qo'shilamiz. Bu borada jinoyat protsessual kodeksiga tegishli

qo'shimchalar kiritish lozim deb hisoblaymiz [15].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda aybdorning qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan va yarashuvga asosan javobgarlikdan ozod etishda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish lozim:

birinchidan, aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda mazkur shaxslarning statistik hisoblarda sudlangan shaxs kabi axborot markazida ma'lumot qolishi natijasida fuqarolarning davlat xizmatlari yagona portali orqali olayotgan ma'lumotlar bazasida aynan qayd etilishi ushbu shaxslarning ishga joylashish va boshqa shu kabi munosabatlaridagi manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

ikkinchidan, shaxslarning qilmishiga amalda pushaymon bo'lishi tartibida javobgarlikdan ozod etuvchi normalar ro'yxatiga harbiy mulkni talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni qo'shgan holda, shu yo'l bilan harbiy mulk o'rnini qisqa muddatlarda qoplash hamda to'ldirish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi;

uchinchidan, yarashuvga ko'ra, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ro'yxati (JKning 66¹-moddasi)ga harbiy jinoyatlardan bir qanchasini kiritish bo'yicha takliflar berilishi maqsadga muvofiq;

to'rtinchidan, JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan ba'zi jinoyatlarda jabrlanuvchi taraf davlat organlari yoki yuridik shaxs hisoblanadi, biroq bu jinoyatlarda yarashuv institutini qo'llash tartibi amaldagi jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinmagan. Shu sababli jinoyat-protsessual qonunchilikka mazkur vaziyatlarda yuridik shaxs vakilini jabrlanuvchi tomonning manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, yarashuvga rozilik bildirish orqali jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq normalarni

o'zgartirish yoki qo'shimcha sifatida kiritish lozim.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar bir qancha xulosalarni amalga oshirishga imkon beradi. Jumladan:

– Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan nizomning JPK 84-moddasi birinchi qismi 8-bandiga asosan, ish qo'zg'atish rad qilinganda yoki tugatilganda, mazkur shaxsga nisbatan barcha turdagi statistik kartochkalar to'ldirish lozimligi qoidasini bekor qilish lozim. JPKning 84-moddasi birinchi qismi 8-bandiga asosan ish qo'zg'atish rad qilinganda yoki tugatilganda, statistik kartochkalar to'ldirish qoida tariqasida bekor qilinishi jinoyatlarni aniqlashda ko'mak berayotgan shaxslar faolligini oshirishi bilan bir qatorda, shaxslarni davlatning jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatiga ishonchi ortishiga sabab bo'ladi;

– shaxslarni qilmishiga amalda pushaymon bo'lishi tartibida javobgarlikdan ozod etuvchi normalar ro'yxatini kengaytirish va shu yo'l bilan harbiy mulk o'rnini qisqa muddatlarda qoplash hamda to'ldirish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Shu sababli JKning ayrim normalariga quyidagi o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq.

295-modda. Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish

Harbiy mulkni behuda sarflash, ya'ni muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisining shaxsan o'zi foydalanishi uchun berilgan harbiy aslaha-anjomlarni sotishi, foydalanish uchun birovga berishi yoki garovga qo'yishi bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Xizmatda foydalanish uchun ishonib topshirilgan qurol, o'q-dori, harakat qilish vositalari, texnika ta'minoti buyumlarini saqlash qoidalarini buzish natijasida

ularni yo'qotish yoki ishdan chiqarish ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan harbiy xizmatchi, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Mazkur moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

296-modda. Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish

Qurol, o'q-dori, harakat qilish vositalari, harbiy texnika yoki boshqa harbiy mulkni qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazish ikki yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan harbiy xizmatchi, agar u jinoyat natijasida yetkazilgan zarar o'rnini uch karra miqdorda qoplagan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Yarashuvga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ro'yxati (JKning 66¹-moddasi)ga harbiy jinoyatlardan 279-moddaning birinchi qismi (Bo'ysunmaslik), 280-moddaning birinchi qismi (Buyruqni bajarmaslik), 283-moddaning birinchi qismi (Badanga shikast yet-

kazish), 284-modda (Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi), 295-moddaning birinchi qismi (Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish)ni kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har jabhasida bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy so-

hasida ham inson qadri va manfaatlarini yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimiz manfaatlariga ham mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

REFERENCES

1. Ataniyazov J.K., Problems of legal regulation of circumstances excluding proceedings in the case. *Jurisprudence*, Tashkent, 2022, no. 5, pp. 165-173. ISSN 2181-1938.
2. Information of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2/>
3. Ataniyazov J.K., Ikramov Sh.R. Procedural problems of applying the institution of circumstances excluding the criminality of the act. *Kriminologiya va jinoiy odil sudlov – Criminology and Criminal Justice*, Tashkent, 2022, pp. 58-68. ISSN 2181-2179.
4. Payziev D.Y. Institut primireniya po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Institute of Reconciliation under the legislation of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2018. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/institut-primireniya-po-zakonodatel'stvu-respubliki-uzbekistan/viewer/>
5. Vladimirova O.A. Primireniye s poterpevshim kak osnovaniye osvobozhdeniya ot ugolovnoy otvetstvennosti [Reconciliation with the victim as a basis for exemption from criminal liability]. *Scientific Journal of the Kuban State Agrarian University named after I.T. Trubilin*, 2011, no. 68. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/primirenie-s-poterpevshim-kak-osnovanie-osvobozhdeniya-ot-ugolovnoy-otvetstvennosti/viewer/>
6. Alimov M.I. Improving pre-trial proceedings on military crimes. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021, p. 11.
7. Criminal Code of the Russian Federation, dated 1996, June 13, No. 63-FZ, Article 76.
8. The Criminal Code of the Republic of Kazakhstan, dated 2014, July 3, No. 226-In ZRKst, Article 68.
9. Criminal Code of Ukraine, dated 2001, April 5, No. 2341-III, Article 46.
10. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, p. 68.
11. Pavlenok V.A. O nekotorykh problemnykh voprosakh prekrasheniya ugolovnykh del v svyazi s primireniyem s poterpevshim i deyatelnym raskayaniyem [About some problematic issues of termination of criminal cases in connection with reconciliation with the victim and active repentance]. *Comments on Laws*. Available at: <https://www.lawmix.ru/comm/336?page=2/>
12. Nagulyak M.V. Aktual'nyye voprosy prekrashcheniya ugolovnogo dela v svyazi s primireniyem storon [Topical issues of termination of a criminal case in connection with the reconciliation of the parties]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2012, p. 7.
13. Xasanova S.G. Prekrashcheniye ugolovnogo dela v svyazi s primireniyem storon v svete razvitiya v Rossii instituta mediatsii (retsezirovaniya) [Termination of the criminal case in connection with the reconciliation of the parties in the light of the development of the mediation

Institute in Russia (Re-examination)]. *Bulletin of the Adyghe State University*, Series 1: Regional studies: philosophy, history, sociology, jurisprudence, political science, cultural studies, 2014, no. 2 (139). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/prekraschenie-ugolovnogo-dela-v-svyazi-s-primireniem-storon-v-svete-razvitiya-v-rossii-instituta-mediatsii/viewer/>

14. Parfenova M.V. Vozmeshcheniye moral'nogo vreda i material'nogo ushcherba v sluchayakh prekrashcheniya ugovnogo dela v svyazi s primireniyem storon [Compensation for moral damage and material damage in cases of termination of a criminal case in connection with the reconciliation of the parties]. *Laws of Russia: Experience, Analysis, Practice*, Moscow, 2012, no. 11, pp. 60–66.

15. Ataniyazov Zh.K. Nekotoryye aspekty prekrashcheniya ugovnogo dela bez resheniya voprosa o vinovnosti (sravnitel'no-pravovoy analiz natsional'nogo i zarubezhnogo zakonodatel'stva) [Some aspects of the termination of a criminal case without resolving the issue of guilt (comparative legal analysis of national and foreign legislation)]. *Innovative approaches in modern science. Proceedings of the LXXIV International Scientific and Practical Conference*, Moscow, Internauka Publ., 2020, no. 14 (74).

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.